



Vebsayt: <https://involta.uz/>

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA TARBIYASIDA MILLIY O`YINLARNING ROLI

M.A.Nurmatova

magistrant QarDUPI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada bola shaxsining barkamol rivojlanishida milliy, ma`naviy, axloqiy qadriyatlarning tutgan o`rni haqida bayon etilgan. Shuningdek o`zbek xalq o`yinlarining kelib chiqish tarixi hamda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta`lim berishda milliy o`yinlarning roli haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so`zlar:** ta`lim, tarbiya, rivojlanish, kommunikativ kompetensiya, o`yin kompetensiya, xalq o`yinlari, yetakchi faoliyat.

## РОЛЬ НАРОДНЫХ ИГР В ОБРАЗОВАНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ

**Аннотация:** в данной статье описывается роль национальных, духовно-нравственных ценностей в гармоничном развитии личности ребенка. Также обсуждаются история возникновения узбекских народных игр и роль национальных игр в воспитании детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** обучение, воспитание, развитие, коммуникативная компетентность, игровая компетентность, народные игры, ведущая деятельность.

## THE ROLE OF NATIONAL GAMES IN PRESCHOOL CHILD BEHAVEOUR

**Annotation:** this article describes the role of national, spiritual and moral values in the harmonious development of the child's personality. Also, opinions on the history of origin of Uzbek folk dances and the role of National Games in teaching preschool children are expressed.

**Keywords:** education, upbringing, development, communicative competence, game competence, folk games, leader activity.

Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo`lib, ajdodlarimiz ma`rifat, manaviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o`rgatish, ularni komillikka yetaklash yo`llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Insonni ma`rifatli va ma`naviy komillikka erishishi pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida qaraladi. Bu esa jamiyatimizdagi pedagogika sohasi bilan shug`ullanuvchilar zimmasiga ulkan mas`uliyatni yuklashga sabab bo`lmoqda. Fikrimiz dalili sifatida: “Hammamiz aziz farzandlarimizni hayoti va taqdirini o`qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo`lgan bu mo`tabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom ko`rsatishimiz kerak”- Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.[10] Mustaqil O`zbekistonning istiqloli va istiqbolini, buyuk kelajagini, umumjahon hamjamiyatiga qo`shayotgan hissasini butun dunyo e`tirof etmoqda. Umuminsoniy qadriyatlar bizning yurtimizdagina emas, balki butun jahonda yaxlit holatda har bir inson qalbidan joy olmoqda.

Har bir bola hayoti maktabgacha ta`lim tashkiloti, maktab bilan bo`glangan, bu masala davlatning, jamiyatning ustuvor vazifasidir. O`zbekiston Respublikasi “Ta`lim to`grisida”gi Qonunda ta`lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi prinsipi bugun ta`lim olishning va uning hamma shakllarini berilishi jarayonida milliy qadriyatlar ruhida bo`lishiga ahamiyat berilgan.[1] Shunday ekan, har bir maktabgacha yoshdagi bolani ma`naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda milliy qadriyatlarini o`rganishga ishtiyoq uyg`otish, miliy o`yinlar, qo`shiq ko`ylash, raqs tushish, musiqa ohangi, harakatlar ketma-ketligi, o`yin qoidalari haqida tushuncha hosil qilish, o`zbek xalqining asrlar davomidagi milliy tajribalariga qiziqtirish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma`naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy o`yinlar davr bilan hamnafas bo`lishi zarur.

Milliy o`yinlar asosida tashkil etilgan ta`limiy faoliyat bilim berish bilan birga, bola uchun hayot darsiga aylanishi, ularni nafaqat ta`limning keying bosqichiga, balki ularni hayotga tayyorlashi lozim. Folklorning tarbiyaviy, bilish va estetik ahamiyati juda katta, zero u bolaning atrofdagi borliq haqidagi tasavvurini kengaytirgan holda ona tilining badiiy shakli, musiqasi va ritmini chuqur his qilish ko`nikmasini rivojlantiradi.[8] Ijtimoiy tajribani o`rganishda milliy o`yinlar maktabgacha yoshdagi bolaga eng yaqin yordamchi bo`lishiga erishish lozim. Maktabgacha yoshdagi bola milliy o`yinlarni o`ynash orqali milliy qadriyatlarni o`zlashtirish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Yoshlar tarbiyasi mavzusi bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 72- sessiyasida shunday dedi: “Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo`lib kamolga yetishi bilan bog`liq. Bizning asosiy vazifamiz– yoshlarning o`z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo`ravonlik g`oyasi “virusi” tarqalishining oldini olish. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo`llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko`p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz”.[9] Yaqin yillar ichida UNICEF O`zbekiston Sog`likni saqlash vazirligi va Maktabgacha ta`lim vazirligi bilan hamkorlikda 0 yoshdan 6 yoshgacha bo`lgan bolalarning ota onalari va boshqa g`amxo`rlik qiluvchilarni qo`llab-quvvatlash maqsadida ota onalar uchun “Bebbo” nomli o`zining birinchi mobil ilovasini yaratdi. Bu mobil ilovaning bugungi kundagi amaliy ahamiyati yuqori. Bu mobil ilova orqali bola parvarishiga mas`ul shaxslar o`z faoliyatlarini osonlashtira oladilar, negaki bu ilova bolaning sog`ligi va rivojlanishi bo`yicha ovqatlanishidan tortib, erta yosh davrida ta`lim va o`yinning bola faoliyatidagi ahamiyati va boshqa keng ko`lamli masalalar bo`yicha mutaxassislar maslahati bilan ta`minlaydi. Ota ona va tarbiyachilar bolalarni sog`lom bo`lib o`sislari, ma`naviy, axloqiy, psixologik va estetik jihatdan tarbiyalashga jiddiy etibor berishlari darkor. Buning yo`li asosan o`yinlar va ertaklar asosida axloqiy tarbiya berish mumkin, chunki bu yoshdagi bolalar asosan o`yin faoliyati bilan mashg`ul bo`ladilar, o`yinlarning turli-tuman bo`lishi, va jamiyatimiz bosh maqsadlaridan kelib chiqib tashkil etish ustuvor vazifa hisoblanadi. O`yin faoliyati bolalarni fiziologik va

psixologik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishlari uchun bir vositadir. Mashhur pedagog A.S.Makarenko bu masalaga doir qimmatbaho fikrlarni yozib qoldirgan. “Yaxshi o`yin faoliyati, -deydi A.S.Makarenko,- yaxshi bajarilayotgan mehnatga o`xshaydi. Mana shuning uchun bolalar o`yin faoliyatida o`zlarini qanday namoyon etsalar, katta bo`lganlaridan so`ng mehnat faoliyatlarida ham o`zlarini ko`p jihatdan shunday namoyon etadilar”. [7]

O`zbek xalqining asrlar davomidagi an'analari, jumladan, tarbiya sohasidagi an'analari ajdodlarimizning tabarruk dini, urf-odatlarini bilan aloqador. Yoshi ulug` insonlarga salom berish, ularni hurmat qilish, yoshi kichiklarni avaylash, izzat ko`rsatish, ilmga oshno bo`lish va kasb o`rganishga da'vat, halol mehnat qilishga chaqirish, qo`shnilar bilan xushmuomala bo`lish kabi an'analar o`zbek oilalarida, ularning dinga munosabatlaridan qat'iy nazar, yoshlarga singdirib kelingan. Bu jarayon yosh avlodni ajdodlarimizdan meros bo`lgan, qimmatli tajriba sifatida axloqiy tarbiyalash demakdir. Donishmand ajdodlarimiz biz kelajak avlodga buyuk meros sifatida qoldirgan milliy qadriyatlarimiz ichida bola ta`limi, axloq-odobi, vatanparvarlik, vatanga sadoqat kabi yuksak fazilatlar behisob desak mubolag`a bo`lmaydi. Bola tarbiyasiga e`tibor xalq donishmandligida- og`zaki ijod namunalarida, an`anviy xalq o`yinlarida har tomonlama o`z ifodasini topgan. Milliy ma`naviy barkamollikni yuzaga keltiruvchi tarbiya murakka va uzliksiz jarayon. Dastavval, xalq qadriyatlari, farzandni ona qornida homila belgisi nishona bera boshlagandanoq asrab-avaylash, saqlash va uni me`yorida rivojlantirishga alohida e`tibor berishdan boshlanadi. [6] Bu fikr sharq mutafakkirlarining asrlarga tatigulik merosida ham takidlangan. Ma`rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida yozganidek, «Vatan har bir kishining tug`ilib o`sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deganlar. Har kim tug`ilgan, o`sgan joyini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan his-tuyg`usi hayvonlarda ham bor. Agar ular ayrilsa, o`zlaridagi kabi rohatda yashamas... Biz turkistonliklar o`z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi arablar Arabistonni, qumlik issiq cho`llarni, eskimuslar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o`z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi». [2]

Bola tarbiyasida xalqimiz o`zining hayoti tajribasidan olgan xulosalarini, falsafiy mulohazalarini milliy o`yinlar orqali ifodalagan. O`zbek milliy o`yinlari mavzu jihatdan

xilma-xil va rang-barangdir. Ayni choqda ular yaratilishi jihatdan juda qadim zamonlarda yashagan ajdodlarimiz ijodini tashkil etadi

Xalq o`yinlari xalq ijodiyotining o`ziga xos bir janri bo`lib, dastlabki ildizlari ko`p asrlik o`tmishga ega. Xalq o`yinlarida har bir davrning u yoki bu o`ziga xos bosqichlari va ijtimoiy voqealar aks etadi. Yunon tarixchisi Pomney Trog (eramizning I asri) yozuvlarida bir vaqtlar hozirgi O`zbekiston hududida yashagan qabilalar mohir jangchilar, chavandoz, mergan, nayzaboz va kamonchi, ya`ni harbiy ishlarga usta kishilar bo`lgani qayd qilinadi. Qadimda hozirgi O`zbekiston hududida ko`chmanchi, yarim ko`chmanchi va o`troq qabilalar yashagan. Albatta o`troq qabilalar ma`lum bir hududda muqim yashaganlar, dehqonchilik ularning asosiy faoliyati bo`lib chorva mollaridan keng foydalanganlar, ko`chmanchi va yarim ko`chmanchi qabilalarning asosiy mashg`uloti chorvachilik bo`lgan. Shu munosabat bilan “Oqsoq bo`ri va qo`ylar”, “Bo`ri keldi”, “Echkilar va cho`ponlar” “Oq tuya” kabi xalq o`yinlari qabila ijtimoiy turmush ehtiyojlari taqazosi bilan paydo bo`lgan. [5]

Milliy xalq o`yinlari ikki guruhga bo`linadi: 1. Milliy harakatli o`yinlar. 2. Milliy xalq o`yinlari. [4] Hozirgi kunda milliy o`yinlar aholi o`rtasidagi sayillar, “Ramazon hayiti”, “Qurbon hayiti”, ommaviy bahor va kuz tomoshalarida o`tkazib kelinmoqda. Ammo, mustamlakachilik davrida o`zbek milliy qadriyatlarimizga shu jumladan milliy o`yinlarga bo`lgan e`tibor keskin kamaydi, yosh avlod tarbiyasi miliy ruhda kechmadi. Buning bir necha sabalarini ko`rishimiz mumkin. Bu davr siyosatining oliy maqsadi umumsavet xalqini vujudga keltirish edi. Bilamizki, xalqni bir maqsad asosida birlashtirish uchun shu xalq orasidagi turli millatning milliy ong, milliy til, milliy an`ana va madaniyatni yo`q qilish bilan erishiladi. Mustamlakachilik davrida mana shu jarayon yuz berdi, natijada etnik madaniyatning bir qismi bo`lgan milliy o`yinlarga eskilik sarqiti sifatida qaraldi. Shu bilan birga shaharsozlik jarayoni jadallashishi natijasida, an`anaviy o`yingohlar maydoni kamaydi va xalq o`yinlarining yo`qolib borishiga olib keldi. Mustaqillik yillaridan so`ng mamlakatda ta`limning samaradorligiga, raqobatbardoshligiga etibor ortib bordi. Ta`lim tizimining uzluksizligi ta`minlandi. Ta`lim tizimining asosiy bo`gini maktabgacha ta`lim sohasini tubdan isloh qilishga kuch sarflandi. 2018-yil 7-iyulda Maktabgacha ta`lim muassasining Davlat o`quv dasturi ta`lim jarayoniga tatbiq etildi. “Ilk qadam” Davlat oq`uv dasturida maktabgacha

yoshdagi bolaning umumiy muhim kompetensiyalari ko'rsatib berildi: Kompetensiya bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlar majmuidir. Boshlang'ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat'iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.[3] Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuv bolani faoliyat va axloq subyekt sifatida yaxlit rivojlanishini ta'minlaydi.

Shunday qilib bolaning har tomonlama yetuk rivojlanishida milliy o'yinlarning ahamiyati yuqoridir. Birinchidan, bolada o'yinga nisbatan tabiiy ehtiyoj bo'lib, bola tanidagi ortiqcha kuchni sarflashga, yetishmagan kuchni to'plashga yordam beradi. Ikkinchidan, o'yinlar xalq tarixining ajralmas qismidir, kuzgusidir. O'yinlarda insonning turmushi, mehnati, tajribasi, tashvishi, kurashi, yutuqlari aksini topadi. O'yinlar orqali biz insoniyat tarixi, orzu-o'yi muammolari, niyatlarini maktabgacha yoshdagi bolalarga o'rgatsak bo'ladi. Uchinchidan, o'yin orqali bolalarni san'atga qiziqishlarini, ma'naviy soha (raqs, tomosha-teatr, musiqa, sport, marosim kabi)larga qiziqishlarini orttirish va boladagi qobiliyatlarni aniqlash mumkin. To'rtinchidan, o'yinlar bolalarni sog'lomlashtiruvchi vosita hisoblanadi. Bolalar xalq oyinlari va musoboqalari yordamida aqlan raso, ruhan tetik, jismonan baquvvat bo'lib rivojlanadi. Beshinchidan, o'yinlar eng samarali tarbiya vositasi. Bolalar o'yinlar orqali hayotga tayyorgarlik ko'radi, turmushdagi qiyinchiliklarni yengishni mashq qiladi, ish va kurashda g'alaba qilishni o'rganadi. Oltinchidan, o'yinlar bolalarning tafakkurini va ularning nutqining barcha jihatlarini shu jumladan bolalar hayotidagi obrazlilikni ham ularga atrofdagi hayot oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining maishiy hayoti va kishilar mehnati bilan tanishish imkonini beradi.. Demak, o'yinlar – xalqning tabiiy va tarixiy ehtiyoji asosida shakllangan, ajdodlar turmushi, mehnati, tajribasi, kurashi, yutuqlarini boshqa shaklda aks ettiradigan, inson madaniyatining eng ko'hna shakllari, ko'pgina ma'naviy sohalar chashmasi, sog'lom avlodni shakllantiruvchi tarbiya vositasi va zamondoshlarimizning jismoniy, ruhiy, aqliy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omildir. Ushbu jarayonlarni amalga oshirish uchun tariximizdan meros bo'lib qolgan o'zbek xalq milliy o'yinlarini hayotga tadbiq etishga kengroq yo'l ochib berilishi, uni ommaviy tus oldirilishi, ya'ni ommaviy axborot vositalari orqali ta'lim va tarbiya jarayoniga milliy o'yinlarni zamonaviy ko'rinishda joriy etish bo'yicha ko'rsatmalar berish, shu bilan birga yosh kelajak avloddan milliy o'yin texnologiyalarining ta'lim tarbiya



jarayoniga targ`ib etish yo`llari, takliflari qabul qilish, oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktablarda, dam olish joylarida, har xil marosim va bayramlarda uni tashkillashtirish va maktabgacha ta`lim tashkilotlarida milliy o`yin texnologiyalaridan foydalanish uchun alohida muhit yaratish darkor.

O`zbekistonning ravnaq topishi, taraqqiyoti yo`lida uni katta iqtisodiy va ijtimoiy to`siqlardan muvaffaqiyatli o`tishi va salmoqli natijalarga erishishi yosh avlod-u, mehnatkash fuqarolarning nafaqat aql-idroki, balki ularning salomatligi, jismoniy barkamolligiga ham bevosita bog`liqdir. Shuni ham aytish kerakki, insonning salomatligi, serg`ayrat bo`lishi, jismoniy kamolotga erishishi faqatgina uni turmush tarzi, mehnat va uy-ro`zg`or faoliyati bilan ta`minlamaydi. Balki har bir xalqni o`z tarixiy, madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotiga xos bo`lgan mazkur xalq tomonidan kashf etilgan milliy o`yinlar, sayllar, urf-odatlar va sport turlari vositalari yordamida ham amalga oshiriladi. Jamiyatimizdagi yaxshilik, jasurlik, kamtarlik, insonparvarlik, inoqlik, xushmuomalalilik, adolat kabi yuksak fazilatlar, barcha-barchasi bizning o`zbekona milliy urf-odatlarimizdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O`zbekiston Respublikasi "Ta`lim to`grisida"gi Qonun.Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.:O`qituvchi, 1992. -160 b
3. Qodirovsa F.R. Toshpo`latova Sh.Q. Kayumova N.M. A`zamova M.N. Maktabgacha pedagogika.(Maktabgacha ta`lim bakalavriat ta`lim yo`nalishi talabalari uchun darslik)-T.:Tafakkur,2019.-B.95
4. Xasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta`lim pedagogikasi.(Kasb-hunar kollejlari uchun o`quv qo`llanma)-T.:ILM ZIYO,2006.-B.69
5. Tadjiyeva M.X. Xusanxodjayeva S.I. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi.(Kasb-hunar va pedagogika kollejlari uchun o`quv qo`llanma)-T.: IQTISOD-MOLIYA,2017.-B.143
6. Yo`ldosheva S. Xalq urf odatlari va an`analari.(Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun)-T.: Ijod dunyosi,2003.-B.79

7. Jalilova S.X. Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi.( Kasb-hunar va pedagogika kollejlari uchun o`quv qo`llanma)T.:Faylasuflar,2013.-B.295
8. Nigora Otamurodova. Bolalarning obrazli nutqini rivojlantirish.//Ilk qadam. №5.2021.- B.38
9. <https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/ozbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72sessiyasida-nutq-sozladi.html>
10. <https://daryo.uz/2020/10/30/shavkat-mirziyoyev-raislidida-talim-sohasidagi-muammolar-ularni-hal-etish-va-talim-sifatini-oshirishga-bagishlangan-videoselektor-otkazildi/>